



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81

2021 йил «27» август

VI-35-78-8-0-K/21

Сурхондарё вилояти ҳокимлиги

### **Surxondaryo viloyati yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi tomonidan 2021-yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti to'g'risida**

Viloyat Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi tomonidan 2021-yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida viloyat Ichki ishlar boshqarmasi Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i I.Soipovning xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi yig'ilishida bildirgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi:**

1. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasining yig'ilishi 2021-yil 5-avgust kuni ZOOM dasturi orqali o'tkazilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ichki ishlar boshqarmasi Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi (I.Soipov)ga viloyat avtoxo'jaliklari, transport korxonalarida, mehnat jamoalarida, o'quv muassasalarida aholi o'rtasida doimiy ravishda YHXB mas'ul xodimlari va mutaxassislari tomonidan ko'rgazmali tartibda profilaktik suhbatlar hamda ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda yo'l harakati xavfsizligiga tegishli turli tadbirlar o'tkazish yuklatilsin.

3. Ichki ishlar boshqarmasi Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi (I.Soipov), viloyat Avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmasi (J.Qilichev), shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda yil yakuniga qadar yo'llarda uzluksiz va xavfsiz harakatni ta'minlash maqsadida, 250 dona yangi yo'l belgilar o'rnatish, 150 dona yo'l belgilari almashtirish, 70 dona yo'l belgilar qayta tiklash, 20 ta yangi svetofor ob'yektlari qurish, 1500 kilometr masofadagi yo'l chiziqlari yangidan chizish, yo'lning yoqasida 10 km velosiped yo'lkasi barpo etish choralari ko'rilsin.

4. Viloyat Avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmasi (J.Qilichev), Jarqo'rg'on tumani hududidan o'tgan xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan M-41 avtomobil yo'lining 1590-1606 kilometrlar oralig'iga yo'l-transport hodisalarini (qarama-qarish harakat yo'nalishiga chiqib ketishini) olidini olish maqsadida yo'lni qatnov qismini keyngaytirib, 1-toifali muhofazalov to'siqlar o'rnatilishini ta'minlasin.

5. Ichki ishlar boshqarmasi Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi (I.Soipov) viloyat

hududida mavjud avtomototransport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilishini ta'minlash maqsadida barcha shahar tumanlariga diagnostika markazlarini qurilishini ta'minlash takliflarini ishlab chiqish;

viloyat hududida yo'l-transport hodisalarini barvaqt oldini olish va yo'l harakati qatnashchilarining yo'llarda xavfsiz harakatlanishini ta'minlash maqsadida, mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda transport vositalarini tezligini o'lchovchi onlayin tizimidan ishlaydigan 20 dona (Autocom) fotoradar moslamalari harid qilish choralari ko'rsin.

6. Viloyat Avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmasi (J.Qilichev), shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

yil yakuniga qadar barcha shahar-tumanlarda mavjud ma'naviy eskirgan (hozirgi talablarga javob bermaydigan) svetaforlarni zamonoviy diodli svetaforlarga almashtirish hamda piyodalar o'tish joylariga tugmali svetaforlarni o'rnatish choralari ko'rish;

yo'llarga shovqunli chiziqlarini chizish uchun maxsus texnika vositasini xarid qilish yuzasidan takliflar kiritsin.

7. Surxondaryo viloyati ixtisoslashtirilgan maxsus o'rnatish foydalanish bo'limini viloyat ichki ishlar boshqarmasi yo'l harakati boshqarmasi ixtiyoriga o'tkazish yuzasidan takliflar tayyorlansin.

8. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (Z.To'rayev), viloyat Axborot va ommaviy kommunikasiyalar boshqarmasi (Yu.Nurmanov), "Surxondaryo" viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), "Surxon tongi" va "Заря сурхана" gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga sohada amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorak yakunida tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Кенгаш раиси**



**Bobolov T.A.**